

CHET TILLARINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Nematullayeva Muslimaxon Raxmatullo qizi

E-mail: muslimanematullayeva797@gmail.com

O‘zDJTU 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatda talab darajasiga ko‘tarilgan mavzulardan biri chet tilini samarali o‘qitish hisoblanadi. Shuning uchun ham xorijiy tillarni o‘qitishda yangi metod, uslublarga bo‘lgan talab va istak kun sayin ortib bormoqda. Ushbu maqolada chet tillarini o‘rgatishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar, metodlar to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiyalar, pedagoglar, metodlar, chet tili, dars jarayoni.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

АННОТАЦИЯ

Эффективное обучение иностранному языку – одна из тем, поднимавшаяся до уровня востребованности в современном развивающемся обществе. Именно поэтому с каждым днем возрастает спрос и стремление к новым методам в обучении иностранным языкам. В данной статье рассказывается о педагогических технологиях и методах, используемых при обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: *педагогические технологии, педагоги, методы, иностранный язык, учебный процесс.*

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

ABSTRACT

Effective foreign language teaching is one of the topics that has risen to the level of demand in today's developing society. That is why the demand and desire for new methods in teaching foreign languages is increasing day by day. This article is devoted to considering pedagogical technologies and methods used in teaching foreign languages.

Keywords: *pedagogical technologies, pedagogues, methods, foreign language, lesson process.*

KIRISH

Hozirgi davrda ingliz tilini o'qitishning ahamiyati hamda uni yaxshilashga doir islohotlar qamrovi yanada kuchayib bormoqda. Bir qancha mutaxassisligi ingliz tili bo'lgan o'qituvchilar ushbu tilni samarali o'qitish maqsadida innovatsion metod hamda pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida targ'ib qilmoqdalar. Pedagogik texnologiya- o'qitish hamda o'zlashtirish jarayonida ta'lim shakllarini samaradorligiga erishishga yordam beruvchi, texnik hamda shaxs resurslari, ularning aloqasini inobatga olgan holda yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. U asta sekin an'anaviy ta'limning bir qismiga aylanib bormoqda. Texnologiyalardan foydalanish yordamida chet tilining o'rgatishning o'ziga xos afzal jihatlari mavjud. Bular:

- O'qitish jarayonida samaradorlikka ega bo'ladi.
- Til o'rganayotgan o'quvchini zamon bilan hamnafas bo'lib, olg'a intilishiga yordam beradi.

Bugungi kunga kelib ingliz tilini o'rgatishga ko'maklashuvchi bir qancha yangi televizion dasturlar uzatilib kelinmoqda va ularning soni ortib bormoqda. Shu bilan birga, o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekistonda ham yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy etilgan. Misol sifatida shuni aytish mumkinki, multimedia asosida chet tili darslarini olib borish yordamida o'quvchining to'rt ko'nikmasini rivojlantirish, darsga doir qiziqarli materiallardan foydalanish orqali ham ko'rib, ham eshitib tushunish va o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Ya'ni, jonli harakatlar yordamida ham o'quvchi so'z ma'nosini taxmin qila oladi. Shuningdek, har qaysi chet tilini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish shu tilni o'rganuvchilarga tilni tezroq o'zlashtirish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yuqoridagi fikrlar davomi sifatida shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda yurtimizda 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilinishi, ushbu yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan islohotlar ham e'tiborga molikdir.

Pedagogik texnologiyalar haqida chuqurroq ma'lumot beriladigan bo'lsa, avvalo uning maqsad, vazifalari va boshqa jihatlari to'xtalib o'tish lozim.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi

- Ommaviy ta'lim sharoitida o'quv jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va o'quvchilar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishishdan iborat hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning vazifasi

- Ta'lim sharoitida pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga muvaffaq bo'lishni ta'minlovchi o'quv muhitini yaratishdan iborat.

Pedagogik texnologiyaning predmeti

- O'quv jarayonining aynan o'zi pedagogik texnologiyaning predmeti sanaladi.

Pedagogik texnologiyaning obyekti

- Bu o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Bir necha yillar mobaynida, pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshiruvchi sifatida qarab kelindi. Keyinchalik 70-yillardan buyon pedagogikaga doir adabiyotlarda ushbu tushuncha yangicha talqin etila boshlangan. Texnologiya deyilsa, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir oqibatida subyektda sifatning o'zgarishiga sabab bo'luvchi jarayon anglanadi. Texnologiya doimo zarur hisoblangan vositalar hamda sharoitlardan foydalangan holda obyektga qaratilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ket ravishda bajarishni ko'zda tutadi. Yuqoridagi tushunchalarni o'qish jarayoniga olib o'tsak, pedagogning o'qitish vositalari ko'magida o'rganuvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur hisoblangan va avvaldan belgilangan ijtimoiy jihatlarni intensiv ravishda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deya ta'riflash joizdir. Ta'riflar nazariyasiga ko'ra bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya deya olish mumkin. "O'qitish texnologiyasi" atamasining kelib chiqish tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, u birinchi bor amerikalik olim B.Skinner tomonidan qo'llanilgan. Quyida esa taniqli olimlarning pedagogik texnologiya haqidagi fikrlar keltirib o'tiladi.

- ❖ B.Skinner "... o'qitish texnologiyasi- psixologiya fani yutuqlarining pedagogik amaliyotda qo'llanishdan iborat", - deya ta'rif bergan.

- ❖ “Ta’lim texnologiyasi- ilmiy va boshqa bilimlarni, amaliy masalalarni hal etishda tizimli ravishda qo‘llashidan iborat”. (Golbrayt)
- ❖ “Pedagogik texnologiya ta’limni tizimlashtirish g‘oyalarini pedagogikaga tatbiq etishdan iborat”. (T.Sakomoto)
- ❖ “Pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, amaliy va uslubiy vositalarning tizimlashgan majmui va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi”. (Klarin M.V.)

Yuqorida keltirilgan ta’riflarga e’tibor berilsa, pedagogik texnologiyaning asl mohiyati o‘quv jarayoniga tizimiy yondashishdan iboratligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan “pedagogik texnologiya” terminini quyidagicha ta’riflagan:

- ❖ “Pedagogik texnologiya- ta’lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llashi va aniqlashining tizimiy uslubidir”.

Pedagogik texnologiyani o‘quv jarayoniga olib kirishning zarurligini shunday mamlakatlar orasida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Pespalkoning fikriga ko‘ra:

- ❖ “Pedagogik texnologiya- bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan talaba shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir”.


O‘zbekistonlik metodist B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga ta’rifi quyidagicha:

- ❖ “Pedagogik texnologiya- ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv bo‘lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga soladigan, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir”.

Polyak olimi Dj. Bruner pedagogik texnologiyani quyidagicha e’tirof etadi:

- ❖ “O‘qitish texnologiyasi- bu o‘qitishning maqbulligini ta’minlovchi ma’lum yo‘l-yo‘riqlar tizimi bilan bog‘liq bilimlar sohasi”.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday deyish mumkinki, pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta’limda o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish hamda bilimlarni to‘liq ravishda o‘zlashtirishga erishishdan iboratdir. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspektidan iboratligi haqida fikr yuritiladi:



Ilmiy aspekt. Bunda o‘qitishning maqsadi, mazmuni hamda metodlari ilmiy jihatdan asoslanadi, shu bilan birga, pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

Tavsifiy aspekt. Bu rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlar hamda vositalarning ishtiroki asosida algoritm jarayonini ishlab chiqiladi.

Amaliy aspekt. Ushbu aspektda pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi

NATIJARLAR

Dars davomida pedagogik texnologiyalardan, multimedialardan foydalanish til o‘rgatish samaradorligini yanada oshishida katta rol o‘ynaydi. Ba’zi hollarda o‘qituvchining texnologiyalarni yetarli miqdorda foydalanmasligi yoki uni bilmasligi tufayli o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishi susayib, zerikish hamda horg‘inlik holatlari kuzatilishi mumkin. Shu sababli ham o‘quvchining ishtiyoqini so‘ndirmaslik uchun pedagogik texnologiya, metodlardan o‘rinli foydalanmoq lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning yoshiga, qobiliyatlariga va ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda o‘quv materiallarini tayyorlashi kerak. Va bu, albatta, ijobiy natija, samara beradi. Qo‘shimcha qilib shuni aytish joizki, har qaysi chet tili darslari zamonaviy texnologiyalar:

✚ Kompyuter

✚ Radio

✚ CD

✚ DVDlar yordamida o‘tilsa, o‘sib borayotgan yosh avlod uchun til o‘rganish nisbatan oson bo‘lish imkoni yaratib beriladi.

Misol uchun, o'quvchining so'zlashib hamda yozib o'rganishini shakllantirish maqsadida texnologiyalardan foydalangan ravishda dars o'tish mobaynida multimedialarni ishlatish juda samarali usullardan biri sanaladi. O'quvchilarga video-filmlar va roliklar tomosha qildirish, keyin esa uni sinf bo'yicha muhokama qildirish orqali o'rganuvchilarning ham eshitish ham nutqlarini yanada rivojlantirish mumkin. Video namoyishidan oldin uning asosiy mavzusi, nima haqida ekanligi va shu mavzu doirasida o'quvchilarda qanday fikrlar mavjudligini bilish maqsadida savol-javob qilish qo'l keladi. Bu mashg'ulot ularning fikrlash qobiliyatini, fikrlash doirasini yanada kengayishiga ko'maklashadi. Yana bir metod mavjud bo'lib, uni dars jarayonida ishlatish o'quvchining faollik, pedagogik mahorat, shu bilan birga, guruhlarini maqsadga muvofiq tarzdan shakllantirish layoqatiga ega bo'lishni talab qiladi. Bu metod "6x6x6" deb nomlanadi. Ushbu metod yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda olib boriladi:


- ◆ O'quvchi mashg'ulot boshlanmasdan avval 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul joylashtirib chiqadi.
- ◆ O'qituvchi o'quvchilarni 6 ta guruhga bo'ladi. Guruhga bo'lishda barcha o'rindiqlarni nomlab, nomlangan varaqchalar o'quvchilarga beriladi. Kimda qaysi nom bo'lsa, o'sha o'quvchi shu nomli o'rindiqni egallaydi.
- ◆ O'quvchilar joylashib olishgandan keyin esa o'qituvchi mashg'ulot uchun mavzuni e'lon qiladi va guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi.
- ◆ Ma'lum vaqt beriladi va munozara jarayoni tashkil qilinadi.
- ◆ O'qituvchi guruhlar faoliyatini kuzatib boradi, kerakli paytda maslahatlar, ko'rsatmalar beradi.
- ◆ Berilgan topshiriqning guruhlar tomonidan to'g'ri va to'liq hal bo'lganiga ishonch hosil qilib, muzokarani to'xtatishlari mumkinligini aytadi.
- ◆ Muzokara uchun belgilangan vaqt tugaydi.
- ◆ O'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi.
- ◆ Qayta shakllantirilgan guruhning a'zolarining har biri avvalgi 6 guruhning a'zolari bo'ladi. Har bir a'zo muammo yechimi sifatida taqdim qilingan xulosani bayon qilishadi.
- ◆ Yechimlarni birgalikda muhokama qilishadi.

Bu metod o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlashga, o'zlarining tanqidiy fikrlash va muammoga muqobil yechimlar topish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatadi.

MUHOKAMA

Agarda pedagoglar yuqorida sanab o'tilgan talablar asnosida o'quv materiallarini tanlamasa, ya'ni boshlang'ich sinflarga murakkab matnli topshiriqlar, audiolar va video-filmlar berilsa, yoki, aksincha, yuqori sinf o'quvchilariga boshlang'ich sinflarga

mo'ljallangan sodda o'quv materiallar taqdim qilinsa, ularda chet tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi astalik bilan so'nadi va darslarni o'zlashtirmay qo'yadi. Bu holatdan kelib chiqqan holda shu ayonki, dars mobaynida bunday texnologiyalardan shunchaki foydalanmaslik kerak, balki ularni o'rinli qo'llay bilish va ulardan foydalanish o'quvchining bilimini oshirishiga xizmat qilishi ham kerak. Hozirgi Yevropa ta'lim standartlariga ko'ra to'rtta:



- Ingliz tilida yozib(writing)
- O'qib(reading)
- Tinglab(listening)
- So'zlashib(speaking) o'rganish kompetensiyalari bo'yicha darslarni o'tish va o'quv jarayonida texnologiyalardan unumli hamda o'rinli foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Xorijiy tillarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'rganish va o'rgatish samarali usullardan biri tariqasida til o'rganuvchi hamda o'rgatuvchilar orasida tanilib ulgurgan. Bu jarayon davomida, masalan:

- ❑ Kompyuter foydalanganda o'quvchi chet tillarida bo'lgan video roliklarni, ko'rsatuvlar, kino va multfilmlarni ko'rish davomida dialoglarni eshitishi, ularni nutq so'zlayotganda o'zlarini qanday tutishini, yuz ifodalarini ko'rib o'rganishi,

- ❑ O‘zi o‘rganayotgan tilda uzatiladigan radio eshittirishlarni, televizion dasturlarni eshitishi hamda tomosha qilishi,
- ❑ An’anaviy tarzda kasseta va magnitafondan foydalanishi,
- ❑ Yoki CD pleyerlardan foydalanishi mumkin.

Hozirgi kunga kelib maktablarda chet tili darslari interfaol o‘yinlar orqali o‘tilishi an’anaga aylanib ulgurdi. Shunisi ma’lumki, darslarni ushbu yo‘sinda, ya’ni turli o‘yinlar orqali dars olib borish o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlarini namoyon etish, diqqatini jamlash, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini hamda kuchli bo‘lishlarini ta’minlaydi. O‘quvchi yoshlarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat o‘yin texnologiyasidan foydalanishning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari, rolli o‘yinlar orqali real hayotda kuzatiladigan turli xil situatsiyalarni til o‘rganish davomida qo‘llash ham foydali hisoblanadi. Bu usul yordamida dars jarayonida real til muhitini yaratish mumkin. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar teran fikrlashga harakat qilishadi va o‘zlarining ichki emotsiyalarini chet tilida erkin ifoda etishni o‘rganadilar. Rolli o‘yinga tayyorlanish davomida ular bir- birlarining grammatik, leksik, so‘zlarni talaffuz qilishdagi xatolarini tuzatishadi va bu bilan ular o‘zlarida to‘g‘ri tanqidiy fikrlash mahoratini o‘stirishadi. Bu o‘yinning yana bir foydali jihati shuki, u barcha o‘quvchilarni birday darsda aktiv qatnashishga chorlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maqolada ko‘rib chiqilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan dars davomida foydalanishning o‘z o‘rni hamda tartib qoidasi mavjuddir. Agar ularni to‘laqonli ravishda to‘g‘ri ishlata olinsa, pedagogik texnologiyalar yordamida xorijiy tillarni o‘qitishning sifat darajasi yana oshishiga erishish mumkin. Maqolada keltirib o‘tilgan darsni olib borish metodlari orqali o‘quvchida til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini yanada barq urishiga olib keladi va buning so‘nggida til o‘rganuvchilarda yaxshi natijalar kuzatiladi. Psixologlarning fikriga qaraganda, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zilini namoyon qilish, real hayotda barqaror o‘rin egallash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini bajarishda fundamental ehtiyojlarga tayanadi. Har qaysi o‘yinning tag-zamirida umumiy ta’lim prinsiplari, o‘zining taktikasi bo‘lishi zarur. O‘yinlar, yangicha yondashuvlar bilan tashkillashtirilgan darsga o‘quvchi an’anaviy shakldagi darsdan ko‘ra qiziqibroq, e’tibor bilan qatnashadi. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytilish joizki, pedagogik texnologiyaning darslarni yanada qiziqarli tashkillashtirishda, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshirishda bo‘lgan o‘rni beqiyosdir. Demakki, chet tillarini o‘qitishda innovatsion, pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga molik hisoblanib, o‘qitish jarayonini ham o‘quvchilar, ham o‘qituvchilar uchun imkoniyatlar auditoriyasiga aylantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://lex.uz/docs/-5431845>
2. <https://lex.uz/docs/-6396146>
3. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13126-pedagogik-texnologiyalar-va-pedagogik-mahorat-fanining-mazmuni-maqsadi-predmeti-va-vazifalari>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-texnologiyalar-haqida-tushuncha>
5. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/3182/2358>
6. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/2326/2180/4781>
7. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/82_Melikova_Gavhar_Turdiqulov_na_551-555.pdf